

**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan tadbirkorlik suby’ektlarida rahbar yoki ta’sischilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi va manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini olish bo‘yicha ko‘rilgan choralar haqidagi
HISOBOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarorining ijrosi bo‘yicha;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan 88 ta, jumladan vazirlikning markaziy apparatida 4 nafar, “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM hamda uning hududiy boshqarmalarida 17 nafar, Texnik me‘yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot institutida 4 nafar, Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazida 3 nafar va hududiy bosh boshqarmalarning 88 nafari tadbirkorlik suby’ektlarida rahbar yoki ta’sischilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi ko‘rsatilgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda tizim tashkilotlari xodimlari tadbirkorlik sub’ektlar ta’sischiligidagi faoliyatini to‘xtatish choralarini ko‘rish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmaslik va kelgusida shu kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik hususida vazirlikning 13.06.2024-yildagi O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 159 va 190-son buyruqlar qabul qilinib, 17 banddan iborat ishlab chiqilgan nazorat rejasi hamda 14 banddan iborat idoraviy dastur ishlab chiqilib, mas’ullar belgilangan holda ijroga qaratildi.

O‘tkazilgan nazorat tadbirlarida, tadbirkorlik sub’ektlarida ta’sischilik asosida faoliyat yuritib kelayotgan holatlardan 70 tasi bartaraf etildi, 3 nafari o‘z hoxishiga ko‘ra vazirlik tizimidan lavozimidan ozod etilgan, 15 tasiga bartaraf etish uchun muddatlar berilishi ta‘minlandi.

Bo‘lim tomonidan nazorat tadbirlari davom etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi